XALQ DEPUTATLARI OQOLTIN TUMANI KENGASHINING

Q A R O R I

Yangi davr MFY Begʻubor koʻchasi 2-uy +998 67 243 1001 oqoltin.t@exat.uz

2025-yil 28-iyul VII-14-97-9-122-K/25 Oqoltin tumani

Oqoltin tumanidagi shaharcha va qishloqlarining maʼmuriy-hududiy chegaralarini tasdiqlash toʻgʻrisida.

Oʻzbekiston Respublikasining 2020-yil 28-avgustdagi “Oʻzbekiston Respublikasining maʼmuriy-hududiy tuzilishi toʻgʻrisida”gi OʻRQ-635-sonli qonuni, Oʻzbekiston Respublikasining 2021-yil 20-apreldagi “Normativ-huquqiy hujjatlar toʻgʻrisida”gi OʻRQ-682-sonli qonunining 18-moddasiga asosan Oqoltin tumanidagi shaharcha va qishloqlar chegaralarini belgilash boʻyicha bajarilgan ishlarning yakuniy natijalarini koʻrib chiqish yuzasidan tuzilgan tuman komissiyasining 2025-yil 19-iyundagi 03-01/1-53-sonli yigʻilish bayoni oʻrganildi.

Kun tartibidagi masalani atroflicha muhokama qilib, Oʻzbekiston Respublikasi "Mahalliy davlat hokimiyati toʻgʻrisida"gi qonunining 6 va 24-moddalariga muvofiq Xalq deputatlari Oqoltin tumani Kengashi

QAROR QILADI:

1. Oʻzbekiston Respublikasining 2020-yil 28-avgustdagi “Oʻzbekiston Respublikasining maʼmuriy-hududiy tuzilishi toʻgʻrisida”gi OʻRQ-635-sonli qonunining ijrosini taʼminlash maqsadida Respublika aerogeodeziya markazining Xorazm hududlararo boʻlinmasi tomonidan Oqoltin tumanida bajarilgan ishlarning yakuniy natijalarini koʻrib chiqish yuzasidan tuzilgan tuman komissiyasining 2025-yil 19-iyundagi 03-01/1-53-sonli yigʻilish bayoni maʼlumot uchun qabul qilinsin.

2. Shaharcha va qishloqlarning chegaralarini belgilash (yoki taqsimoti) toʻgʻrisidagi maʼlumot 1-ilovaga, sxematik xaritasi 2-ilova muvofiq tasdiqlansin.

3. Ushbu Qarorning ijrosini nazorat qilish tuman hokimining birinchi oʻrinbosari M.Xomidjonov va Xalq deputatlari tuman Kengashining doimiy komissiyalari zimmasiga yuklatilsin.

4. Mazkur qarorning tasdigʻi Xalq deputatlari Sirdaryo viloyati Kengashidan soʻralsin.

Kengash raisi

SUVONOV XUSNITDIN YAXSHILIKOVICH

Xalq deputatlari Oqoltin tumani
Kengashining
2025-yil 28-iyuldagi
VII-14-97-9-122-K/25 -son qaroriga
1-ilova

Oqoltin tumani shaharcha va qishloqlarning chegaralarini belgilash (yoki taqsimoti) toʻgʻrisida
MAʻLUMOT

№	Shaharcha va qilshloqlar nomi	Chegara uzunligi (*metr*)	Yer maydoni (*gektar*)
1	Andijon qishlog'i	44 060,26	6 962,84
2	Bo'ston qishlog'i	42 042,11	9 756,62
3	Farg'ona qishlog'i	57 285,38	10 654,72
4	G'alaba qishlog'i	36 143,59	6 006,90
5	Sardoba qishlog'i	58 086,19	9 099,92
6	Shodlik qishlog'i	41 665,30	6 142,90
7	Andijon shaharchasi	6 842,43	240,47
8	Farg'ona shaharchasi	13 093,71	356,13
9	Sardoba shaharchasi	14 513,10	432,50
	Jami	**313 732,08**	**49 653,00**

Xalq deputatlari Oqoltin tumani
Kengashining
2025-yil 28-iyuldagi
VII-14-97-9-122-K/25 -son qaroriga
2-ilova

